

## XALQ DARDINI KUYLAGAN SHOIR

**Saparboyeva Nafisa Asror qizi**

Urganch davlat universiteti filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi  
3-bosqich talabasi

E-mail: [saparboyevanafisa84@gmail.com](mailto:saparboyevanafisa84@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqlolada Turdi Farog‘iyning hayoti va ijodi, o‘sha davrdagi siyosiy vaziyatlar, asarlarining mavzu ko‘lamlari, uning xalq dardi kuylovchi va millatni birdamlikga chaqiruvchi she’rlarini tahlil qilish maqsad qilib olindi.

**Kalit so‘zlar:** Farg‘ona, A. Majidiy, “Zarafshon” gazetasi, “Maorif va o‘qituvchi” jurnali, Nodir devonbegi, Abdulazizzon, Subhonqulixon, Oqbo‘tabiy, Buxoro.

### АННОТАЦИЯ

Цель статьи - проанализировать жизнь и творчество Турди Фароги, политические ситуации того времени, размах его творчества, его стихи, воспевающие народную боль и призывающие к единству нации.

**Ключевые слова:** Фергана, А. Маджида, газета “Зарафшон”, “Образование и учитель” журнал, Надир Девонбеки, Абдулазизхан, Субхонкулихан, Акботабий, Бухара.

### ABSTRACT

The purpose of the article is to analyze the life and work of Turdi Faroghi, the political situations of that time, the scope of his work, his poems that sing about the pain of the people and call for national unity.

**Keywords:** Fergana, A. Majidi, “Zarafshan” newspaper, “Maarif and Teacher” magazine, Nadir Devonbegi, Abdulaziz Khan, Subhonkuli Khan, Akbotabiy, Bukhara.

### KIRISH

Turdi Farog‘iy XVII asrda Buxoroda dunyoga kelgan bo‘lib, tahminan 1699/1700 yillarda vafot etgan deb ko‘rsatiladi. Turdi Farog‘iyning hayoti va ijod faoliyati ashtaxonilar sulolasidan Nodir devonbegi, Abdulazizzon va Subhonqulixon davrlariga to‘g‘ri keladi. Turdi Farog‘iyning bizgacha yetib kelgan merosi 1924-yil Abdulhamid Majidiy tomonidan topilib, 1925-yil “Zarafshon” gazetasida e’lon qilgan. Mazkur yili “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida “O‘zbek shoiri Turdi” nomi bilan

maqolasi va Farog‘iy she’rlaridan parchalarni e’lon qilgan. Turdi Farog‘iyning 12 ta g‘azal, 5 ta muxammas, 1ta fardini jami:18 ta she’rini A. Majidiy aniqlaydi. Turdi Farog‘iy Nodir devonbegini taxtdan tushurib o‘miga o‘g‘li Abdulazizxon o‘tqazgan Yuz urug‘ining obro‘li a’zolaridan bo‘lgan. Turdi Farog‘iy Abdulazizxon juda qattiq ishonch bildirgan, unga atab she’rlar bitgan:

Shoh Abdulaziza bo‘ldi jahonbonlig‘ xatam,  
Ahdi shahanshohiyu fursati xaqonlig‘ xatam,  
Shar’i insofu karampeshalig‘u xonlig‘ xatam,  
Rasmi dodu ravishoyini musulmonlig‘ xatam,  
Yaxshi ot etti alam arsayi davri ofoq.

Turdi Farog‘iy Abdulazizzondek o‘zi orzu qilgan podshohga yetganidan, aholining ahvoli yahshilanganidan mamnum bo‘lgan. Ammo bu uzoqqa cho‘zilmagan. Subhonqulixon kichik ukasi va jiyanini o‘ldirib, akasi bilan taxt uchun kurash olib borgan , Abdulazizzon taxtni ukasiga topshirishga majbur bo‘lgan va taxt Subxonqulixonga o‘tirib, Turdini va yuz urug‘i vakillarini saroydan haydab yuborgan.

### ASOSIY QISIM

Turdi Farog‘iy keyinchalik Oqbo‘tabiy yonida hayot kechiradi. Mutasil taqiblar oqibatida uning turnish sharoiti achinarli holga kelib qoladi. :

Hukm jori, so‘z qabuli, bir duri dargo‘sh edim,  
Ahli davlatlar bian yoru harif hamdo‘sh edim.  
Hoy - ho‘yi bazimlarda shahdi no‘sho no‘sh edim,  
Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarxush edim,  
Bu zamon yuvg‘on qozon ostida qolg‘on yundiman.

Ushbu muxammasi Turdi Farog‘iyning qanday ahvolga kelib qolganligi o‘z qalami bilan tasvirlanadi. Shu o‘rinda Turdi Farog‘iy ijodida hasbi hol mavzuyi ham yetakchilik qiladi. Turdi Farog‘iy Oqbo‘tabiy yonidaligida ancha keksayib qolganligi tarixiy ma’lumotlardan ma’lum. Keksa shoir o‘zi haqida o‘tmish hayotini eslab muxammas yozadi:

Yod mandin kim berur, yaxshi zamonlar ko‘rdiman,  
Rind sarxayliyu xush ayshi damodam surdiman,  
Halqayı ushshoqda bazmi majolis qurdiman...

Bu satirlar Turdi o‘z umrining ma’lum davrlaridan mamnun ekanligini ko‘rsatadi. Turdi Farog‘iy ijodida vatan va millat qismati eng asosiy mavzulardan biri bo‘lib, u mutasib amaldorlar va Subhonqulixonga nafratini o‘zining she’r va g‘azallariga ko‘chairadi. Shu to‘g‘rida yozilgan “Subhonqulixon” haqidagi hajviyasida quyidagi misralarni bitadi:

Joyi osoyish emas, hech kima bu ko‘hna ravoq,  
Yog‘dirur boshimiza sangi jafo, gardi firoq –

Turdi Farog‘iy xalq holiga achinib, mansabparas amaldorlarning ishlarini qoralaydi:

Edingiz barchangiz itdek fuqaroning etini,  
G‘asib ila molin olib, qo‘ymadingizlar, bitini.  
Qamchilar dog‘ solib bo‘ynig‘a, tilib betini,  
Yordingiz zahrasini ichidan olib o‘tini,  
Bo‘lmadi kam raiyat boshidan hech tayoq...

Xalqning soliqlardan qiynalayotgani ko‘rib turgan Turdi Farog‘iy bunga jimgina qarab tura olmas edi. U kurashuvchan shoir va shu sababdan ham uning hayoti og‘ir kechadi. Taqiblar, tahqirlar uning irodasini sindira olmaydi, u baribir xalq va millat uchun yonib yashahsda davom etadi. Uning “Bu mulk...”, “Tor ko‘ngili beklar...” g‘azallari aynan yuqoridagi gaplarimizning isboti bo‘la oladi. Turdi millat uchun, uning birligi uchun, to‘qson ikki o‘zbek ulisining bir bo‘lib yashashini ich – ichidan istaydi. O‘zboshimcha bek-u amaldorlarni birlikga bir yoqadan bosh chiqarishga chorlaydi:

Tor ko‘ngulluk beklar man-man demang, kenglik qiling,  
To‘qson ikki bovli o‘zbek yurtidir, tenglik qiling.  
Birni qipchoqu xitoyu, birni yuz, nayman demang,  
Qirq yuz, ming son bo‘lib, bir jon oylik qiling.  
Bir yoqadin bosh chiqarib, barcha bir to‘ng‘a kirib,  
Bir o‘ngurluk, bir tirizlik, bir yoqo, yenglik qiling.

Turdining ushbu vatanparvarlik ruhidagi satirlarida goh tanbeh, goh nasihat, goh hajv yo‘li bilan millatni va beklarni birlikga, birdamlikga chorlaydi.

### XULOSA

Xulosa qiladiga bo‘lsak Turdi Farog‘iy xalq va millat uchun jon kuydirgan, hatto vaqtি kelganda kurashga otlangan va boshqalarni ham bunga davit qila olgan mutaffakir shoirdir. Uning qanchalar muaffakir ekanligini quyidagi misralar ham isbotlaydi:

Har qanda g‘ami do‘st dili porani istar,  
To subh yaqo yirtmadi – mehr o‘lmadi paydo –

Turdi Farog‘iy hatto shu yerda ham odamlarni mehrli bo‘lishga chorlamoqda mening nazarimda. Shoir fikricha, do‘st g‘ami dili pora jarohatlangan yurakni taqoza etadi. Chunki yurakning bir parchasini yulib do‘stga berish, uning ham mehrini yurakkaga joylash kerak, shunda do‘stlik mustahkam va abadiy bo‘ladi. Ikkinci misra esa huddi birinchi misrani dalilagandek toki quyosh shafaqi osmoni yoritib tun zulmatini parchalamaguncha mehr quyoshi chiqmaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI - XIX asr I yarmi) (Matin): darslik\ N.Jumaxo'ja, I. Adizova. — Toshkent : Noshir nashriyoti, 2019.
2. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi (XVII – XIX (I yarmi) asrlar). O'zbekiston yozvuchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashryoti. – T .: 2006.
3. Abdurauf Fitrat .“O'zbek shoiri Turdi”. Kitobda: Fitrat. Tanlangan asarlari 2-jild. –T.: Ma'naviyat, 2000.